

Bolaga bilganini o'rgatish kerakmi?

Опубликовано Хусен Тангриев

Farzand tarbiyasi

April 11, 2008

## BIRINCHI MISOL

Oilada muttasil cheklovlar ta'sirida tarbiyalangan bola dars jarayonida ham erkin fikr bildirib, o'rtoqlari bilan bahsli munosabatga kirisha olmaydi. Gapirmoqchi bo'lgan har bir gapini ikkilanib aytadi. Mavzular yuzasidan mulohaza yuritishga qiynaladi. Ayrim hollarda shunday bolalar maktabda ham muallimlar chekloviga duch keladi. Shu o'rinda ko'pchilik eshitgan, maktab hayotidan olingen lavhani yana bir bor eslatishni lozim topdik:

Tasviriy san'at darsi. O'qituvchi bolalarga gul rasmini chizishni topshiradi. Oldingi partada o'tirgan bola gul chiza boshlaydi. Shunda o'qituvchi:

— Nega rasm chizishni boshlab yubording? Hali men senga qanday chizishni o'rgatganim yo'q-ku?

Domla darsni tushuntirib bo'lgach, bola yana qo'liga qalam oladi.

O'qituvchi:

— Sen yana nima qilayapsan? Hali qaysi birini chizishni aytmagan bo'lsam?

Dars davom etadi. Bola yana surat chizishga kirishadi. O'qituvchi:

— Hoy bola, senga gul suratini chizishda qaysi ranglarni ishlatalishni aytmadim. Sen esa...

Mazkur epizodni atroflicha tahlil qilmay turib ham o'zimizni bola o'rniga qo'yib ko'rsak, o'quvchining darsda qay ahvolga tushib izza bo'lganini tasavvur qila olamiz.

Hayot taqozosiga ko'ra, bizning bolamiz boshqa maktabda o'qishiga to'g'ri kelib qoldi, deylik. Yana tasviriy san'at darsi.

O'qituvchi: — Bolalar, bugungi darsimizda gul rasmini chizamiz. Marhamat qilib, hamma o'zi sevgan gul rasmini chizsin.

O'quvchilar ishga kirishdilar. Bizning bolamiz esa qo'liga qalamini ushlaganicha o'tiribdi.

O'qituvchi:

— Sen nega jim o'tiribsan?

— Avval gulni qanday chizishni o'rgating, ustoz.

Muallim tushuncha beradi, lekin bola hamon chizmay o'tiribdi.

O'qituvchi:

— Qani endi suratni chizavermaysanmi?

— Qaysi gulni chizishni aytmadingiz-ku?

— Xohlagan gulingni chizaver!

O‘quvchi yana ishga kirishmaydi. O‘qituvchi:

— Yana senga nima kerak?

— Qaysi ranglarni ishlatishni aytmadingiz, ustoz...

### Ikkinci epizod

Ona qizchasiga piyola yuvishni buyurdi va qo‘sib qo‘ydi: «Ehtiyot bo‘l, piyolani sindirib qo‘yma!» Afsuski, qizcha uni yuvaturib, tasodifan qo‘lidan tushirib yubordi. Nima uchun? Qizcha piyolani oilaning zarur ashyosi ekanini bilardi, uni sindirmaslik haqida tushunchasi bor edi, lekin piyolani sindirdi. Sababi shundan iboratki, hikoyamiz qahramoni bilgan, his qilgan ko‘nikmani hisobga olmagan ona bolasiga ortiqcha eslatma berdi. Qizchaning bosh miyasida piyola sinishi haqidagi signal qo‘zg‘aldi. Ilmiy yondashadigan bo‘lsak, ona cheklovi bola ongidagi mustaqil fikrlash instinktini bir lahzaga so‘ndirdi. Oqibati esa bizga ayon.

Har ikkala misolni taqqoslab, mushohada yuritgan muallim yoki ota-onan noo‘rin cheklovlar bolani qay ahvolga solishini tushunib yetdilar. Ko‘rinib turibdiki, hadeb tergayvermaslik bolalarning kichik yoshidanoq mustaqil hayot haqida o‘ylashlariga asos bo‘ladi. Ammo ko‘p hollarda bu usul bolalarni o‘zboshimcha, ota-onani mensimaydigan, faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan qilib qo‘yadi. Tabiiy savol tug‘iladi, tanbeh beraverish unday bo‘lsa, erkinlik berish bunday bo‘lsa, bola tarbiyasiga qanday yondashmoq kerak?

Farzand ota-onan teng ishtirokida yaratilgan meva. Hech qaysi bog‘bon ekkan mevasi bemaza bo‘lishini istamaydi. Mevaning shirin bo‘lishi uchun esa parvarish kerak. Oilada ham, maktabda ham bolani yomon yo‘llarga kirib ketishdan saqlash uchungina cheklov kerak, ammo bolaga bilgan narsasini qaytadan o‘rgatish, uning intilishi va fikrlashini rivojlantirishdan to‘xtatadi, xolos. Ichkilikbozlik, kashandalik, o‘g‘rilik, birovning moliga ko‘z olaytirish, kattalik, kalondimog‘lik kabi zararli odatlardan bolani qaytarish biz uchun otameros tarbiya usulidir.

Azimjon PO‘LATOV,